



FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 15 - iyul

261-11-158-Q/22

Rishton tumani hokimligi

Viloyat hokimining 2022-yil 29-iyundagi “Konstitutsiyaviy islohotlarni umumxalq referendumini orqali amalga oshirilishida aholining huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish bo`yicha ishchi guruhi tarkibini tasdiqlash to`g`risida”gi 266-11-0-Q/22-sonli qarori haqida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo`ljallangan yangi o`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta`minlash hamda konstitutsiyaviy islohotlarni umumxalq referendumini orqali amalga oshirilishida aholining huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish hamda viloyat hokimining 2022-yil 29-iyundagi 266-11-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022-yil 29-iyundagi “Konstitutsiyaviy islohotlarni umumxalq referendumini orqali amalga oshirilishida aholining huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish bo`yicha ishchi guruhi tarkibini tasdiqlash to`g`risida”gi 266-11-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Konstitutsiyaviy islohotlarni umumxalq referendumini orqali amalga oshirilishida aholining huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish bo`yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Aholining huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish bo`yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman ishchi guruhi targ`ibot tadbirlarini reja-grafik asosida har haftaning seshanba va juma kunlari davlat organlari, mahallalar, qishloqlar kesimida seminar,

davra suhbatlari, savol-javob va aholini qiziqtiradigan boshqa shakllarda tashkil etib borsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Dehqonov) tuman ishchi guruhi tomonidan olib borilayotgan huquqiy targ`ibot tadbirlarini ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borsin hamda huquqiy targ`ibot tadbirlarini o`tkazishda OAV vakillari va blogerlar bilan yaqindan hamkorlik yo`lga qo`ysin.

6. Tuman ishchi guruhi tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar dasturida belgilangan muddatlarda tuman adliya bo`limiga ma`lumotlar taqdim etib borilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari Z.Umarov zimmasiga yuklansin.

Туман хокими



С.Солиев

Rishton tuman hokimining
2022 yil 15 iyuldagi
261-11-158-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Konstitutsiyaviy islohotlarni umumxalq referendumini orqali amalga oshirilishida aholining
huquqiy va siyosiy savodxonlikni oshirish bo'yicha**

TARG'IBOT TADBIRLARI DASTURI

| № | Tadbir nomi | Muddat | Mas'ul ijrochilar |
|----------|---|--|--|
| 1. | Referendum o'tkazishga oid qonunchilik hujjatlari, konstitutsiyaviy islohotlarning tub mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan turli tarqatma materiallar (buklet, flayer, annotatsiya, videorolik, slayd) tayyorlash va tarqatish. | 2022 yil iyul-avgust | Tuman ishchi guruhi, "Rishton haqiqati" gazetasi |
| 2. | Davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy tuzilmalarida referendum qonunchiligi mazmun-mohiyati, qonunchilikdagi so'nggi yangiliklar hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy islohotlarda bevosita qatnashishining ahamiyatiga doir mavzular yoritilishini tashkil etish. | 2022 yil iyul-sentyabr (oyda ikki marotaba) | Tuman ishchi guruhi, "Rishton haqiqati" gazetasi |
| 3. | Mahallalarda o'tkaziladigan targ'ibot tadbirlarida aholiga referendum qonunchiligining mazmun-mohiyatini, unda qatnashish tartibi va ahamiyatini tushuntirish. | 2022 yil iyul-sentyabr (haftaning seshanba va juma kunlari) | Tuman ishchi guruhi, "Rishton haqiqati" gazetasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi |
| 4. | Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari binolarida "Konstitutsiyaviy islohotlar" burchaklarini tashkil etish. | 2022 yil iyul-avgust | Tuman ishchi guruhi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi |
| 5. | Referendum jarayoni ishtirokchilariga referendum institutining mavqei, referendumga doir qonunchilik hujjatlarining mohiyatini tushuntirishga qaratilgan seminarlar, davra suhbatlari o'tkazish. | 2022 yil iyul-sentyabr (haftada bir marotaba) | Tuman ishchi guruhi |

| | | | |
|-----|--|---|--|
| 6. | Aholini referendum qonunchiligi haqida keng xabardor qilishni nazarda tutuvchi turli xil aktsiya va fleshmoblar o`tkazish hamda ularni keng yoritish. | 2022 yil 10-20 avgust | Tuman ishchi guruhi, "Rishton haqiqati" gazetasi |
| 7. | Fuqarolarga referendum qonunchiligini tushuntirishga qaratilgan maxsus videoroliklar tayyorlash va tarqatish. | 2022 yil Iyul-avgust (oyda bir marotaba) | Tuman ishchi guruhi, "Rishton haqiqati" gazetasi |
| 8. | "Xotin-qizlarning referendumdagi ishtiroki" mavzusida davra suhbatlari, uchrashuvlar o`tkazish hamda maqolalar e`lon qilish. | 2022 yil iyul-sentyabr (oyda 1 marotaba) | Tuman ishchi guruhi, "Rishton haqiqati" gazetasi |
| 9. | Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda aholining referendum jarayonidan xabardorlik darajasini yanada oshirish maqsadida quyidagi aksiyalarini o`tkazish: – "Yangi O`zbekiston Konstitutsiyasi – inson qadri uchun"; – "Yangi O`zbekiston Konstitutsiyasi – mening Konstitutsiyam"; – "Biz yangi Konstitutsiya mualliflarimiz"; – "Biz tanlash huquqiga egamiz". | 2022 yil sentyabr (haftada bir marotaba) | Tuman ishchi guruhi |
| 10. | Yolg`iz keksalar, pentsionerlar va nogironlarning dam olish va jamoat markazlarida ularni referendum jarayonlaridan xabardorligini oshirish bo`yicha xayriya kechalari, uchrashuvlar, davra suhbatlarini uyushtirish. | 2022 yil iyul-avgust | Tuman ishchi guruhi |
| 11. | Nogironlar uylari va muassasalarida "Men jamiyatning to`laqonli a`zosiman" mavzusida tadbirlar o`tkazish hamda maqolalar e`lon qilish. | 2022 yil iyul-avgust (oyda 2 marotaba) | Tuman ishchi guruhi, "Rishton haqiqati" gazetasi |
| 12. | Sanatoriylar, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, fuqarolarning olis va borish qiyin bo`lgan yerlardagi turar joylarida referendumga oid ko`rgazmali materiallar chop etib, tarqatish va targ`ibot tadbirlarini o`tkazish. | 2022 yil iyul-avgust (doimiy) | Tuman ishchi guruhi |
| 13. | Bozorlarda, savdo shahobchalarida hamda tadbirkorlik sub`yektlari o`rtasida referendum qonunchiligi mazmun-mohiyatini tushuntirish, mavzuga oid flayer va boshqa targ`ibot materiallarini chop etish va tarqatish. | 2022 yil avgust-sentyabr (oyda ikki marotaba) | Tuman ishchi guruhi |

| | | | |
|-----|---|--|--|
| 14. | Ijtimoiy tarmoqlarda “Yangi Konstitutsiya” ruknini tashkil etish hamda mazkur rukn ostida referendumga oid tushunchalar izohini sodda, lo`nda va tushunarli tarzda har kuni berib borish. | 2022 yil iyul-avgust <i>(doimiy)</i> | Tuman ishchi guruhi, “Rishton haqiqati” gazetasi |
| 15. | Referendum qonunchiligiga oid savol-javob shaklidagi qo`llanma tayyorlash va elektron shaklda tarqatish. | 2022 yil 20 avgust | Tuman ishchi guruhi |
| 16. | Tuman hokimligi hamda davlat organlari va tashkilotlarining telegram kanali hamda boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali referendum qonunchiligi bo`yicha infografika, ma`lumotlarni e`lon qilib borish. | 2022 yil iyul-sentyabr <i>(doimiy)</i> | Tuman ishchi guruhi Tuman hokimligi axborot xizmati |
| 17. | Tuman ishchi guruhi tomonidan olib borilayotgan huquqiy targ`ibot tadbirlarini ijtimoiy tarmoqlar va OAV orqali yoritib borish hamda huquqiy targ`ibot tadbirlarini o`tkazishda OAV vakillari va blogerlar bilan yaqindan hamkorlikni yo`lga qo`yish. | 2022 yil iyul-sentyabr <i>(doimiy)</i> | Tuman ishchi guruhi Tuman hokimligi axborot xizmati |

Rishton tuman hokimining
2022 yil 15 iyuldagi
261-11-158-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Tuman ishchi guruhi
TARKIBI**

| t/r | F.I.Sh | Lavozimi |
|------------|------------------|--|
| 1. | M.Qodiraliyev | Tuman adliya bo`limi boshlig`i, <i>guruh rahbari</i> |
| 2. | D.Yigitaliev | Tuman oila va xotin-qizlar bo`limi mas`ul xodimi |
| 3. | K.Raximov | Tuman mahalla va nuroniylarni qo`llab-quvvatlash bo`limi mas`ul xodimi |
| 4. | D.Komilova | Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi mas`ul xodimi |
| 5. | J.Mo`dinov | O`zbekiston yoshlar ittifoqi tuman kengashi raisi |
| 6. | Lavozimiga ko`ra | Tumandagi kasb-hunar ta`limi muassasalari o`qituvchilari |